

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

TURSUNALIYEV BOBUR BEGALI O'G'LI

**MAHSULDOR SIGIRLARDA SUBKLINIK KEToz KASALLIGINI
DAVOLASH VA OLDINI OLISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**16.00.01 - Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va
xirurgiyasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand - 2024

**Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
ветеринарным наукам**

Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciences

Tursunaliyev Bobur Begali o'g'li

Mahsuldor sigirlarda subklinik ketoz kasalligini davolash va oldini olish usullarini takomillashtirish..... 3

Турсуналиев Бобур Бегали угли

Совершенствование методов лечения и профилактики субклинического кетоза у продуктивных коров..... 21

Tursunaliyev Bobur Begali Ugli

Improving methods of treatment and prevention of subclinical ketosis in productive cows..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 43

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

TURSUNALIYEV BOBUR BEGALI O'G'LI

**MAHSULDOR SIGIRLARDA SUBKLINIK KEToz KASALLIGINI
DAVOLASH VA OLDINI OLISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**16.00.01 -Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va
xirurgiyasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/V55 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ssuv.uz) hamda «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Norboyev Qurbon Norboyevich veterinariya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Eshburiyev Baxtiyar Mamatkulovich veterinariya fanlari doktori, professor Isayev Mashrab Tursunbayevich veterinariya fanlari nomzodi
Yetakchi tashkilot:	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/30.12.2019.V.12.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «20» aprel soat «11⁰⁰» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77- uy. Tel./faks: (99866) 234-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14320 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77- uy. Tel./faks: (99866) 234-76-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «2» aprel kuni tarqatildi.
(2024 yil «2» aprel dagi № 6 - raqamli reystr bayonnomasi)



X.B.Yunusov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
biol.f.d., professor

S.B.Eshburiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, vet.f.d., dotsent

B.Bakirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
vet.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida chorvachilikning muhim tarmog'i hisoblangan qoramolchilik zamonaviy texnologiyalar asosida jadal rivojlanib borayotgan sohalardan biri bo'lib, oziq-ovqat xavfsizligini barqaror ta'minlash, aholini sifatli go'sht va sut mahsulotlariga bo'lgan talabini to'liq qondirish, sanoatni xom ashyo bilan ta'minlashni ko'paytirish imkoniyatini beradi. Ushbu dolzarb masalalarni amalga oshirishda mahsuldor sigirlarning modda almashinuvi buzilishi kasalliklari, jumladan subklinik ketoz salmoqli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mahsuldor sigirlarda subklinik ketoz asosan moddalar almashinuvining turli darajada buzilishlari bilan xarakterlanib, sigirlar mahsuldorlik va pushtdorlik xususiyatlarining keskin pasayishi, oziqalar sarfi va veterinariya xarajatlarining ortishi, buzoq olishning kamayishi, ekspluatatsiya muddatining qisqarishi va servis davrining uzayishi oqibatida katta iqtisodiy zarar keltirishi kuzatilmoqda. Shu boisdan sigirlar subklinik ketozini ertachi diagnostika qilish va samarali davolash va oldini olish usullarini ishlab chiqish veterinariya ilm fani va amaliyotidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Dunyoning ko'pchilik davlatlarida «yuqori mahsuldor sigirlarning ketozi, xususan subklinik ketoz ko'p qayd qilinib, bo'g'oz sigirlarda subklinik ketoz - 17,4% ni, tug'ruqdan keyingi kasalliklar - 85,4%ni, umumiy poda tarkibida o'rtacha 25,8% ni tashkil etib aksariyat hollarda yashirin holda surunkali kechadi».¹ Buning asosiy etiologik omillaridan biri sigirlarni silos konsentrat tipdagi balanslashmagan ratsionlarda oziqlantirish va oziqa ratsionlarining tipi va tarkibi bo'yicha hayvonlar ehtiyojining yetarlicha qondirmasligi hisoblanadi. Ushbu patologiyani ertachi zamonaviy diagnostika usullarini ishlab chiqish, davolash va oldini olishni takomillashtirish bilan sigirlar mahsuldorligi va reproduktiv xususiyatlarini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Respublikamizda qoramolchilik xo'jaliklarini xorijdan keltirilgan yangi texnologiyalar asosida intensiv rivojlantirish asosida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida zotli sigirlar bosh soni ko'payib, ulardan foydalanish samaradorligi oshib bormoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturda² «... chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini jadal rivojlantirish, respublika aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash va sut yetishtirish hajmini 11,5 million tonnadan 22 million tonnaga, aholi jon boshiga esa 336 kilogrammdan 560 kilogrammga oshirish» bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalar belgilab berilgan. Shundan kelib chiqib, sigirlarda subklinik ketozning tarqalishi, xo'jaliklarga

¹ Требухов А.В. Субклинический кетоз коров: Диагностика, лечение, профилактика: дис...канд.вет.наук. Барнаул, 2005. – с. 180

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 fevraldagi PQ-120-son "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori

keltiradigan iqtisodiy zarari, sabablari va simptomlarini o'rganish asosida mavjud davolash-profilaktik tadbirlarini yanada takomillashtirish va amaliyotga tadbiq etish taqozo etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Veterinariya to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi³, 2019 yil 28 martdagi PF-5696-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, 2020 yil 29 yanvardagi PQ-4576-sonli «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2022 yil 8 fevraldagi PQ-121-son «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022 yil 31 martdagi PQ-187-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustivor vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mahsuldor sigirlarda subklinik ketoz va unga yondosh bo'lgan asidoz, modda almashinuvi buzilishi hamda jigar kasalliklarining etiologiyasi, kechish xususiyatlari, patogenezi, klinik belgilari, diagnostikasi, davolash va oldini olish chora-tadbirlari bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan. Bunday tadqiqotlar xorijiy mualliflardan xususan, O.V.Батанова, С.Н.Бабухин, И.П.Кондрахин, В.Т.Самохин, И.А.Новикова, А.В.Требухов, В.В.Влизло, А.П.Вячеслав, М.Э.Павлов, К.Х.Папуниди, В.А.Пасечник, А.В.Жаров, В.С.Карпов, В.Д.Илиеш, Ю.Я.Кравайнис, С.В.Сомптон, L.Young, S.McDougall, S.K.Tuteja, J.M.Kellylar tomonidan, O'zbekistonlik olimlardan B.Bakirov, Q.N.Norboyev, B.M.Eshburiyev, N.B.Ro'ziqulov, M.B.Safarov, S.B.Eshburiyev, D.Yadixanov, B.Hayitov va boshqalar tomonidan o'tkazilgan. Ammo, Respublikamizning qoramolchilik fermer xo'jaliklari sharoitida chetdan keltirilgan zotli qoramollarda subklinik ketozning etiopatogenezi, simptom va sindromlari to'liq o'rganilmagan. Kasallikni davolash va oldini olishda mahalliy dori vositalarining sigirlar organizmiga ta'siri yetarlicha asoslanmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida «Qoramollarda uchraydigan barcha yuqumsiz, yuqumli va parazitlar kasalliklarni oldini olish va davolash xizmatlarini ko'rsatish»

³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli farmoni.

bo'yicha qoramolchilik xo'jaliklari bilan tuzilgan shartnoma (Shartnoma №15.01.07.2021 y.) asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mahsuldor sigirlarda subklinik ketozni tarqalishi, keltiradigan iqtisodiy zarari va etiologiyasini o'rganish, kasallikka tashxis qo'yish, davolash hamda oldini olish usullarini takomillashtirish va amaliyotga joriy etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mahsuldor sigirlarda subklinik ketozning tarqalish darajasi va xo'jaliklarga keltiradigan iqtisodiy zararini aniqlash;

mahsuldor sigirlarda subklinik ketozning etiologiyasini o'rganish asosida ertachi diagnostika qilish;

sog'lom va subklinik ketoz bilan kasallangan mahsuldor sigirlarning klinik va gematologik ko'rsatkichlarini baholash;

sog'indan chiqarilgan mahsuldor sigirlarda natriy gidrokarbonat, LPP-1, Kovertal, Butasal, Liarsin, Vetozal 10%, *Orego Plus* preparatlarining ular organizmiga ta'sirini ilmiy asoslash;

mahsuldor sigirlarda subklinik ketozni davolash va oldini olishning terapevtik va iqtisodiy samaradorligini aniqlash;

subklinik ketozni davolash va profilaktika usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarining qoramolchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari, ulardagi shved, golshtin zotli sigirlar, qon, sut, siydik va katta qorin suyuqligi hamda ozuqa namunalari olingan.

Tadqiqotning predmeti tajriba o'tkazilgan qoramolchilik xo'jaliklarida poda sindromatikasi ko'rsatkichlari, sigirlarning klinik, gematologik ko'rsatkichlari, siydik, sut va katta qorin suyuqligi ko'rsatkichlari, natriy gidrokarbonat, Multivit+minerallar, LPP-1, Kovertal, Butasal, Liarsin, Vetozal 10%, *Orego Plus* preparatlari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda klinik, morfologik, biokimyoviy, refraktometrik, mikroskopik, keton tanachalari miqdorini ekspress test usulida tekshirish, oziqa namunalari zootexnikaviy tahlil qilish, olingan raqamli ma'lumotlarning statistik va biometrik tahlili usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mahsuldor sigirlarda subklinik ketozning asosiy sabablari rasionlarning oqsilli va energetik jihatdan nomutanosibli, fosfor-kalsiy nisbatlarining pastligi, bir tomonlama silos-konsentrat tipdagi oziqlantirish ekanligi aniqlangan;

sigirlarning subklinik ketozini siydik va qon tarkibidagi keton tanachalari miqdorini ekspress usulda (KETONE URS-1K indikatorli test yordamida) aniqlash orqali ertachi diagnostika qilish mumkinligi aniqlangan;

mahsuldor sigirlarda subklinik ketozning etiopatogenezi o'rganilib, kasallikning gipogemoglobinemiya, gipoglikemiya, disproteinemiya, gipokarotinemiy, ketonemiya, ketonuriya bilan kechishi ilmiy asoslangan;

sigirlar organizmida keton tanachalar miqdorining qon (oʻrtacha $1,584 \pm 0,08$ mmol/l), sut ($1,483 \pm 0,06$ mmol/l) va siydik tarkibidagi miqdorining ($3,216 \pm 0,06$ mmol.l) ortishi subklinik ketozni rivojlanishiga olib kelishi aniqlangan;

mahsuldor sigirlarda subklinik ketozning oldini olishda LPP-1 vitamin-mineralli premiksida 40 g, Orego Plus preparatidan - bir boshga 1,5 g, natriy gidrokarbonat – bir boshga 20 g omuxta yemlarga aralashgan holda qoʻllashning samaradorligi yuqori boʻlib, sut mahsuldorligini 15,1% ga oshishi tajribalarda isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari qoramolchilik fermer xoʻjaliklari sharoitida mahsuldor sigirlarda subklinik ketozning tarqalishi, etiologiyasi va kechish xususiyatlari aniqlangan;

sigirlarda subklinik ketozni klinik va biokimyoviy oʻzgarishlar, katta qorin suyuqligidagi infuzoriyalar sonini hamda uning muhitini, qon va siydik tarkibidagi keton tanachalarining miqdorini aniqlash orqali ertachi diagnostika qilish mumkinligi aniqlangan;

sigirlarda subklinik ketozni davolashda LPP-1 vitamin-mineralli premiksida 50 g oziqalar bilan berish, natriy gidrokarbonat 60g/bir boshga kuniga bir marta, ishtaha ochuvchi va oʻt haydovchi ruminaktiv preparatidan 20 ml kuniga 2 marta suvga aralastirib berish, 25% li glyukoza eritmasidan 400 ml kunora bir marta vena qon tomiriga yuborish, (jami 7 marta) multivit + minerallar preparatidan davolashning birinchi va oʻninchi kunlari muskul orasiga 20 ml inyeksiya qilish usuli joriy qilingan;

mahsuldor sigirlarda subklinik ketozni oldini olish uchun LPP-1 vitamin mineralli premiksida kuniga bir boshga 40 g, Orego Plus preparatidan bir boshga 1,5 g, natriy gidrokarbonat - 20 g aralastirib maxsus tayyorlangan granulali omuxta yem tarkibi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Samarqand davlat veterinariya medisinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti aprobasiya komissiyasi tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari va birlamchi materiallarga ijobiy baho berilganligi, olingan raqamli maʼlumotlar biometrik ishlovdan oʻtkazilganligi, ishda olib borilgan tekshiruvlarning uslubiy jihatdan toʻgʻriligi, hayvonlar sonining yetarli ekanligi, shuningdek, olingan nazariy natijalarning tajriba maʼlumotlari bilan toʻgʻri kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar bilan taqqoslanganligi, laboratoriya va ishlab chiqarish tajribalarining dalolatnomalarga asoslanganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yuqori mahsuldor sigirlarda subklinik ketozni qon va siydik tarkibidagi keton tanachalar miqdorining meʼyoriy koʻrsatkichlarga nisbatan ortishi, gipogemoglobinemiya, gipoglikemiya, disproteiniemiya, gipokarotiniemiya, ketonemiya, ketonuriya bilan kechishi, katta qorin suyuqligida muhitning kislotalik tomonga oshishi, infuzoriyalar sonining kamayishi bilan kechishi ilmiy asoslanganligi, kasallikni davolash va oldini olishda qoʻllanilgan dori vositalarini sigirlarning mahsuldorligi, ulardan tugʻilgan buzoqlarning tana vazni va kunlik oʻsishiga ijobiy taʼsir etishi boʻyicha olingan maʼlumotlar klinik diagnostika va

hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari fanlarining ilmiy jihatlarini takomillashtirishda foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, sigirlarda subklinik ketozni ertachi diagnostika qilish uchun ular rasionlarini tarkibi va to'yimliliigi bo'yicha tahlil qilinishi, kasallikni aniqlash usullarining takomillashtirilganligi hamda davolash va oldini olishning samarali usullari ishlab chiqilganligi, tadqiqotlar natijasida yuqori mahsuldor sigirlarda subklinik ketozni davolash va oldini olish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mahsuldor sigirlarda subklinik ketoz kasalligini davolash va oldini olish usullarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

«Mahsuldor sigirlarda subklinik ketozni diagnostikasi uni davolash va oldini olish usullarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar» ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2023 yil 30 noyabrdagi №02/23-525-son ma'lumotnomasi). Bunda sigirlarda subklinik ketozni erta diagnostika qilish, guruhli davolash va oldini olishda ijobiy natijalarga erishilgan;

sigirlarda subklinik ketozni davolashda LPP-1 vitamin mineralli premiksida 50 gr, natriy gidrokarbonat 60g/bir boshga kuniga bir marta, ishtaha ochuvchi va o't haydovchi ruminaktiv 20 ml kuniga 2 marta suv bilan aralashtirib berish, 25% li glyukoza eritmasidan 400 ml kun ora bir marta vena qon tomiriga yuborish, (jami 7 marta) multivit + minerallar preparatidan davolashning birinchi va o'ninchi kunlari muskul orasiga 20 ml inyeksiya qilish usuli ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilingan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2023 yil 30 noyabrdagi №02/23-525-son ma'lumotnomasi). Natijada sigirlar organizmidagi keton tanachalar miqdorining me'yorlashuvi, servis davrining 60-75 kungacha qisqartirish imkonini bergan;

mahsuldor sigirlarda subklinik ketozni oldini olish uchun LPP-1 vitamin mineralli premiksi bir boshga 40 g dan, Orego Plus 1,5 g, natriy gidrokarbonat 20 g omuxta yemlarga aralashtirib maxsus tayyorlangan granulasi yem tarkibi ishlab chiqilgan va Samarqand, Qashqadaryo viloyatlaridagi qoramolchilik fermer xo'jaliklariga joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2023 yil 30 noyabrdagi №02/23-525-son ma'lumotnomasi). Buning natijasida sigirlarda klinik va gematologik ko'rsatkichlarning fiziologik me'yorlar darajasida yaxshilanishi, sut mahsuldorligining o'rtacha 15,1% ga yuqori bo'lishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta halqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida hamda 3 marta universitet aprobatsiya komissiyasi va SamDVMCHBU professor o'qituvchilarining yillik hisobot yig'ilishlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishi tavsiya

etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, xorijiy jurnallarda 1 ta maqola hamda 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, beshta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 118 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida tadqiqotlar mavzusining dolzarbligi va zaruriyati, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning obyekti va predmetlari, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyot ma'lumotlarining tahlili**» deb nomlangan birinchi bob uch qismga bo'lingan bo'lib, uning birinchi «Sigirlar organizmida oqsil, uglevod va yog' almashinuvi buzilishlarining etiopatogenezi» deb nomlangan qismida subklinik ketozda sigirlar organizmida kuzatiladigan oqsil, uglevod va yog' almashinuvi buzilishlarining etiologiyasi va rivojlanish mexanizmi haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan. «Mahsuldor sigirlarda subklinik ketozga tashxis qo'yish usullari» deb nomlangan ikkinchi qismida mahsuldor sigirlarda subklinik ketozni aniqlash usullari, patogenezi va kechish xususiyatlari keltirilgan. «Mahsuldor sigirlarda subklinik ketozni davolash va oldini olishning uslubiy tamoyillari» deb nomlangan uchinchi qismida sigirlarda subklinik ketozni davolash va oldini olish usullari to'g'risidagi Respublikamiz va xorijiy olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqotlar joyi, obyekti va usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot joyi, obyekti va usullari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Ilmiy tadqiqotlar 2019-2023 yillar davomida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti «Ichki yuqumsiz kasalliklar» kafedrasida, Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi «Palandara chorva» MChJ, Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi «Akbarshox Shavkat», Pastdarg'om tumanidagi «K.Eldor», «Obodonchilik» fermer xo'jaliklarida bajarilgan.

Dispanser tekshirishlar uchun qoramolchilik xo'jaliklarida 10 boshdan iborat sog'in sigirlar etalon guruhi «o'xshash juftliklar» tamoyili asosida ajratib olinib, ularda 30 kunda bir marta klinik-laborator tekshirishlar o'tkazildi. Laboratoriya tekshirishlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti ichki yuqumsiz kasalliklar kafedrasiga qarashli «Gematologiya» laboratoriyasida va Samarqand viloyat hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi kimyo toksikologiya laboratoriyalarida o'tkazildi.

Sigirlarda bo'g'ozlik davrining 8- va 9- oylarida va laktatsiyaning birinchi va ikkinchi oylarida dispanser tadqiqotlar olib borilib, klinik status, oziqa ratsionining

tarkibi va to'ymiligi tahlil qilindi. Sigirlarda sut tarkibidagi keton tanachalarining miqdori Lestrade reaktivi yordamida, qon va siydik tarkibidagi keton tanachalari miqdori (Wellion vet BELUA va KETONE URS-1K indikatorli test usulida) aniqlandi. Ularda umum qabul qilingan usullarda har 30 kunda bir marta klinik - gematologik va olingan siydik namunalarida laborator tekshirishlar o'tkazildi.

Sigirlardan olingan qon namunalarida gemoglobin (gemogloblin sianidli usul), glyukoza (Ortolutidin bilan rangli reaksiya) umumiy oqsil (Refraktometrik usuli, RNC - portativ refraktometrida), ishqoriy zahira (И.П.Кондрахин usulida), karotin (Карр Прайс usuli, Юдкин modifikatsiyasi), katta qorin suyuqligining muhiti (pH metr yordamida), undagi infuzoriyalarning soni hamda ularning harakatchanligi (mikroskopik usulda) aniqlandi. Qondagi AlAT va AsAT fermentlarining faolligi analizator test-sistema Cobas 6000; Roche Diagnostics (Shvesariya) apparati yordamida aniqlandi.

Dissertatsiyaning uchinchi «**Xususiy tadqiqotlar**» bobida sog'in sigirlarda subklinik ketozning etiologiyasi va simptomlari, ularni saqlash va oziqlantirish sharoitlarining tahlili, klinik-gematologik va katta qorin suyuqligi ko'rsatkichlarini tekshirish natijalari keltirilgan.

Ilmiy tadqiqotlar Qashqadaryo viloyati, Shaxrisabz tumanidagi «Palandara Chorva» MChJ qoramolchilik xo'jaligidagi shved zotiga mansub va Samarqanda viloyati Pastdarg'om tumanidagi «K.Eldor» qoramolchilik fermer xo'jaligidagi golshtin zotiga mansub sigirlarda subklinik ketoz kasalligining sabablari, klinikasi va rivojlanish mexanizmlarini o'rganish maqsadida 385 bosh sigirlarda dispanser tadqiqotlar o'tkazildi.

Dissertatsiyaning «Sog'in sigirlarda subklinik ketozning etiologiyasi va simptomlari» deb nomlangan qismida qoramolchilik xo'jaliklaridagi sog'in sigirlarni saqlash va oziqlantirish sharoitlari tahlili berilgan. Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani «K.Eldor» qoramolchilik fermer xo'jaligiga qarashli sigirlar ratsionining tahliliga ko'ra, ratsion strukturasi shirali oziqlar ulushi 56,6% ni, dag'al oziqlar 28,3% ni, konsentrat oziqlar 15,09% ni tashkil etdi.

Sigirlarning ratsioni asosan silos-konsentrat tipida bo'lib, ratsion tarkibining 56,6 % ni makkajuxori silosi, 15,7 % ni beda pichani, 3,77 % ni bug'doy yormasi, 3,1 % ni makka yormasi, 1,88 % ni arpa yormasi, 12,57 % ni bug'doy somoni, 6,28 % ni paxta shroti tashkil etadi. Ratsionning umumiy to'ymiligi 13,27 oziqa birligini tashkil etdi. Oziqlantirish me'yorlariga nisbatan ratsion to'ymiligidagi 3,33 oziqa birligiga kamligi, hazmlanuvchi proteinni 19,2 g, qandni 625,2 g, karotinni 258,4 mg, fosforni 14,64 g, kalsiyni 7,22 grammga kamligi va xom kletchatkani 105,4 grammga ortiqchaligi aniqlandi. Sog'in sigirlar organizmini to'ymli moddalar bilan ta'minlanishi hazmlanuvchi protein bo'yicha o'rtacha 98,77 % ni, quruq modda - 110,7 % ni, xom kletchatka - 102,5 %, qand - 51,9 %, karotin - 48,38%, kalsiy - 93,12 %, fosfor - 80,48%, ni tashkil etdi.


Sog'in sigirlar ratsionini tahlil qilish bilan, ratsionning silos-konsentrat, silos-senaj tipda ekanligi, balanslashmaganligi, ratsionda qand va karotinning yetishmasligi, kletchatkaning ortiqchaligi, qand-oqsil nisbati va fosfor-kalsiy

nisbatlarining buzilganligi, ratsioning to‘yumliligi va oziq birligi sigirlar organizmi uchun yetarli darajada emasligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning «Subklinik ketoza organizmdagi klinik-biokimyoviy o‘zgarishlarni aniqlash natijalari» deb nomlangan bo‘limida sigirlarda subklinik ketoz paytidagi klinik o‘zgarishlar, qon, sut va siydik tarkibidagi keton tanachalar hamda katta qorin suyuqligining ko‘rsatkichlarini aniqlash natijalari bayon etilgan.


Xo‘jaliklardagi sigirlardan 10 boshdan etalon guruhlar tanlab olinib, ularda bo‘g‘ozlikning oxirgi 2 oyi va laktatsiyaning birinchi va ikkinchi oylarida umum qabul qilingan usullarda har 30 kunda bir marta klinik-fiziologik tekshirishlar o‘tkazildi. Sigirlarda klinik tekshirish natijalari ularning bo‘g‘ozlik davrida o‘rtacha 40-50 % da, sut berish davrida esa o‘rtacha 65-80% hayvonlarda ishtahaning pasayishi, shilliq pardalarning kuchsiz sarg‘ayishi va oqarishi, teri qoplama yaltiroqligining pasayishi kabi xarakterli belgilarning kuzatilishini ko‘rsatdi.

Sigirlarda subklinik ketoz qondagi eritrositlar sonini tekshirishlarning oxiriga kelib o‘rtacha «Palandara Chorva» MChJda $4,86 \pm 0,08$ mln/mkl, «K.Eldor» fermer xo‘jaligida $4,68 \pm 0,06$ mln/mkl, gemoglobin miqdori shunga mos ravishda $86,4 \pm 4,2$ g/l va $78,0 \pm 5,2$ g/l (anemiya), glyukozani - $1,82 \pm 0,23$ mmol/l va $1,74 \pm 0,16$ mmol/l (gipoglikemiya), karotinni - $0,328 \pm 0,46$ mg% va $0,298 \pm 0,25$ mg%, ishqoriy zahirani - $40,8 \pm 1,64$ hajm%CO₂ va $42,6 \pm 1,48$ hajm%CO₂ gacha kamayishi kuzatildi (1-2 rasmlar).



1-rasm. Sigirlar qonining biokimyoviy ko‘rsatkichlari (n=10)

«K.Eldor» fermer xo‘jaligiga qarashli sigirlardan olingan qon namunalarida keton tanachalari bo‘g‘ozlikning 8- oyida o‘rtacha $0,685 \pm 0,05$ mmol/l ni, bo‘g‘ozlikning 9- oyida o‘rtacha $0,925 \pm 0,05$ mmol/l, laktatsiyaning 1-oyida o‘rtacha $1,247 \pm 0,05$ mmol/l ni, laktatsiyaning 2-oyida o‘rtacha $1,584 \pm 0,08$ mmol/l ni (me‘yor – $0,172-1,032$ mmol/l) tashkil etdi. «Palandara chorva» f/xda tekshirilgan sigirlar qonidagi tarkibidagi keton tanachalari miqdori shunga mos holda o‘rtacha $0,876 \pm 0,05$ mmol/l, $1,028 \pm 0,06$ mmol/l, $1,253 \pm 0,04$ mmol/l, $1,385 \pm 0,05$ mol/l ni tashkil etdi.



2-rasm. Sigirlar qonining biokimyo viy ko'rsatkichlari (n=10)


«K.Eldor» fermer xo'jaligiga qarashli sigirlardan olingan siydik namunalarida keton tanachalari bo'g'ozlikning 8- oyida o'rtacha $2,486 \pm 0,08$ mmol/l ni, bo'g'ozlikning 9- oyida o'rtacha $2,592 \pm 0,06$ mmol/l, laktatsiyaning 1-oyida o'rtacha $2,685 \pm 0,05$ mmol/l ni, laktatsiyaning 2-oyida o'rtacha $3,216 \pm 0,06$ mmol/l ni (me'yor – 1,548-1,720 mmol/l) tashkil etdi. «Palandara chorva» f/xda tekshirilgan sigirlar siydigi tarkibidagi keton tanachalari miqdori shunga mos holda o'rtacha $1,846 \pm 0,06$ mmol/l, $2,752 \pm 0,08$ mmol/l, $2,954 \pm 0,05$ mmol/l, $3,016 \pm 0,05$ mol/l ni tashkil etdi.

Sut tarkibida keton tanachalar miqdorini aniqlash natijalariga ko'ra «K.Eldor» fermer xo'jaligidagi sigirlarda laktatsiyaning 1-oyida o'rtacha $1,321 \pm 0,06$ mmol/l ni, laktatsiyaning 2-oyida o'rtacha $1,483 \pm 0,06$ mmol/l ga (me'yor – 1,032-1,376 mmol/l) oshganligi aniqlandi.

«Palandara chorva» f/xda bu ko'rsatkich mos holda $1,424 \pm 0,06$ va $1,458 \pm 0,08$ mmol/l ni tashkil qildi (3-rasm).

Sigirlarda subklinik ketoz qondagi gemoglobin miqdorining o'rtacha 14,6 g/l ga kamayishi va ishqoriy zahirani o'rtacha 4,2 hajm%CO₂ ga, glyukozani o'rtacha 0,44 mmol/l ga, siydikdagi keton tanachalar miqdorining o'rtacha $3,216 \pm 0,06$ mmol/l gacha oshib borishi bilan kechadi.

«Akbarshox Shavkat» f/xda sog'in sigirlarda subklinik ketoz qondagi eritrositlar sonini o'rtacha $4,98 \pm 0,06$ mln/mkl, «Obodonchilik» fermer xo'jaligida $4,72 \pm 0,08$ mln/mkl, gemoglobin miqdori shunga mos ravishda $84,2 \pm 4,2$ g/l va $76,0 \pm 5,4$ g/l (anemiya), glyukozani - $1,78 \pm 0,18$ mmol/l va $1,82 \pm 0,18$ mmol/l (gipoglikemiya), karotinni - $0,328 \pm 0,54$ mg% va $0,314 \pm 0,21$ mg%, ishqoriy zahirani - $42,8 \pm 1,56$ hajm%CO₂ va $38,6 \pm 2,08$ hajm%CO₂ gacha kamayishi bilan xarakterlandi.



3-rasm. Sigirlar organizmidagi keton tanachalar miqdorining o'zgarish dinamikasi

«Palandara chorva» MChJ ga qarashli sog'in sigirlardan olingan katta qorin suyuqligining muhiti (pH) tekshirishlar boshida (sigirlar bo'g'ozligining 8-oyi) fiziologik me'yorlarning pastki chegarasida bo'lib, o'rtacha $6,22 \pm 0,07$ ni (me'yor pH-6,5-7,5) tashkil etdi, bu ko'rsatkichni laktatsiya davomida kislotalik tomonga oshib borishi va tekshirishlarning oxiriga (laktatsiyaning 2-oyi) kelib, o'rtacha $6,14 \pm 0,05$ gacha kamayib borishi ($P < 0,001$) xarakterli bo'ldi.

Katta qorin suyuqligidagi infuzoriyalar soni tekshirishlarning boshida o'rtacha $566,6 \pm 44,3$ ming/ml ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkichning laktatsiyaning ikkinchi davriga kelib o'rtacha $436,4 \pm 22,4$ ming/ml gacha ($P < 0,01$) kamayishi kuzatildi. Bu davrga kelib mikroorganizmlar faolligining ham susayishi qayd etildi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi **“Subklinik ketozni davolash va oldini olish tajriba natijalari»** deb atalgan bobida mahsuldor sigirlar subklinik ketozini davolash va oldini olish bo'yicha tajribalar natijalari keltirilgan. Yangi tuqqan sigirlarda ketozni davolash vositalarining terapevtik samaradorligini aniqlash, qo'llanilgan preparatlarni sog'in sigirlar organizmiga va mahsuldorligiga ta'sirini o'rganish maqsadida «K.Eldor» fermer xo'jaligidagi golshtin zotli 5-6 yoshli sigirlarda tajribalar o'tkazildi. Buning uchun xo'jalikdagi tuqqaniga 6-8 kun bo'lgan va ketozning klinik belgilari ko'ringan sigirlardan “o'xshash juftliklar» tamoyili asosida tanlangan 15 bosh sigirlar har birida 5 boshdan iborat bo'lgan 3 guruhga ajratildi.

Birinchi tajriba guruhidagi sigirlarga xo'jalik ratsionidagi 2 kg silosning o'rniga 2 kg qand lavlagi berildi va bunga qo'shimcha ravishda LPP-1 vitamin minerali premiksi kuniga bir boshga 50 g natriy gidrokarbonat 60 g omuxta yemga qo'shildi hamda 25% li glyukoza eritmasidan 400 ml kunora (jami 7 marta) vena qon tomiriga yuborildi.

Ikkinchi tajriba guruhidagi sigirlarga xo‘jalik ratsionidagi 2 kg silosning o‘rniga 2 kg qand lavlagi berildi va bunga qo‘shimcha ravishda bir boshga kuniga birmarta LPP-1 vitamin minerali premiksi 50 g natriy gidrokarbonat 60 g omixta yemga qo‘shib berildi, ishtaxa ochuvchi va o‘t xaydovchi ruminaktiv preparatidan 20 ml kuniga 2 marta suv bilan aralashtirib ichirildi. 25% li glyukoza eritmasidan 400 ml kunora bir marta vena qon tomiriga (jami 7 marta) yuborildi. Multivit+minerallar preparatidan davolashning 1- va 10- kunlari muskul orasiga 20 ml ineyeksiya qilindi.

Uchinchi tajriba guruhidagi sigirlar nazorat sifatida olinib, ananaviy usullarda davolandi, ya‘ni 25 % li glyukoza eritmasidan 400 ml kun ora vena qon tomiriga (jami 7 marta) yuborildi. Tetramag preparatidan davolashning 1-chi va 2-chi kunlari muskul orasiga 20 ml ineyeksiya qilindi. Davolash tajribalari 20 kun davomida o‘tkazildi.

Tajribalarning boshida barcha tajriba guruhidagi sigirlarda umumiy holsizlanish, ishtahaning o‘zgarishi, teri qoplamasining hurpayishi, yaltiroqligining yo‘qolganligi, shilliq pardalar rangining kuchsiz sarg‘ayishi, kesuvchi tishlarning qimirlashi kabi belgilar aniqlandi.

Qondagi gemoglobin miqdori tajribalarning boshida birinchi tajriba guruhidagi sigirlarda o‘rtacha $82,6 \pm 3,5$ g/l ni, davolashning 10- kuni o‘rtacha $86,6 \pm 3,8$ g/l ni tashkil etgan bo‘lsa, 15 kuniga kelib o‘rtacha $88,5 \pm 4,6$ g/l gacha ortishi aniqlandi. Qondagi glyukoza shunga mos holda o‘rtacha $2,18 \pm 0,05$ mmol/l, $2,22 \pm 0,08$, $2,36 \pm 0,06$ mmol/l, umumiy oqsil o‘rtacha $78,8 \pm 4,5$ g/l, $75,6 \pm 5,8$ g/l, $76,2 \pm 4,2$ g/l, karotin - $0,284 \pm 0,22$ mg%, $0,289 \pm 0,23$ mg%, $0,313 \pm 0,36$ mg%, ishqoriy zahira - $42,3 \pm 2,8$ hajm%CO₂, $44,5 \pm 4,5$ hajm%CO₂, $49,8 \pm 4,2$ hajm%CO₂, gacha ko‘payganligi qayd (P < 0,01) qilindi.

Ikkinchi tajriba guruhidagi sigirlarda qondagi gemoglobin miqdori tajribalarning boshida o‘rtacha $84,6 \pm 3,8$ g/l ni, 10-kunida o‘rtacha $92,5 \pm 4,8$ g/l, 15- kunda o‘rtacha $88,4 \pm 5,8$ g/l ni tashkil etdi. Qondagi glyukoza shunga mos holda - $2,16 \pm 0,06$ mmol/l, $2,26 \pm 0,08$ mmol/l, $2,52 \pm 0,09$ mmol/l, umumiy oqsil - $79,2 \pm 3,2$ g/l, $78,5 \pm 5,3$ g/l, $72,6 \pm 4,2$ g/l, karotin - $0,266 \pm 0,36$ mg%, $0,295 \pm 0,43$ mg%, $0,324 \pm 0,46$ mg%, ishqoriy zahira - $43,5 \pm 2,5$ hajm%CO₂, $48,2 \pm 3,2$ hajm%CO₂, $53,6 \pm 5,1$ hajm%CO₂, ga oshganligi (P < 0,05) aniqlandi.

Nazorat guruhidagi sigirlarda tajribalar boshida boshqa guruhlarga nisbatan deyarli bir xil ko‘rsatkichlar bilan namoyon bo‘lgan bo‘lsa, davolashning 10- kuniga kelib qondagi gemoglobin miqdori o‘rtacha $86,5 \pm 2,8$ g/l ni, 15- kunida o‘rtacha $82,6 \pm 3,7$ g/l ni tashkil qildi. Glyukoza miqdori shunga mos ravishda o‘rtacha - $2,18 \pm 0,03$ mmol/l, $2,09 \pm 0,07$ mmol/l, umumiy oqsil - $79,6 \pm 3,5$ g/l, $75,6 \pm 3,4$ g/l, karotin - $0,268 \pm 0,22$ mg%, $0,252 \pm 0,37$ mg%, ishqoriy zahira o‘rtacha - $42,5 \pm 2,5$ hajm%CO₂, $39,1 \pm 2,7$ hajm%CO₂, gacha kamayishi (P < 0,05) kuzatildi.

Sigirlar qon zardobidagi aspartataminotransferaza (AsAT) fermenti faolligi birinchi tajriba guruhida davolashning boshida o‘rtacha $0,78 \pm 0,05$ mkmol.s/l.ni, 10- kuni o‘rtacha $0,72 \pm 0,06$ mkmol.s/l.ni, 15- kuni o‘rtacha $0,68 \pm 0,05$ mkmol.s/l.ni, alaninaminotransferaza (AlAT) faolligi shunga mos ravishda $0,66 \pm 0,05$ mkmol.s/l.ni, $0,62 \pm 0,06$ mkmol.s/l.ni, $0,58 \pm 0,06$ mkmol.s/l.ni tashkil etdi.

Sigirlardan olingan qon tarkibida keton tanachalar miqdori birinchi tajriba guruhida davolashning boshida o‘rtacha $1,523 \pm 0,06$ mmol/l ni tashkil etib,

davolashning 10- kunida o'rtacha $1,318 \pm 0,05$ mmol/l, 15- kunida o'rtacha $1,104 \pm 0,06$ mmol/l ni tashkil etdi. Ikkinchi tajriba guruhidagi sog'in sigirlarda shunga mos ravishda o'rtacha $1,535 \pm 0,06$ mmol/l, $1,258 \pm 0,06$ mmol/l, va $1,010 \pm 0,05$ mmol/l ni tashkil etdi. Nazorat guruhidagi sigirlar qonidagi keton tanachalar miqdori tajribalar boshida o'rtacha $1,542 \pm 0,04$ mmol/l ni tashkil etgan bo'lsa, davolashning 10- kuniga kelib o'rtacha $1,554 \pm 0,05$ mmol/l, 15 -kunigacha $1,608 \pm 0,06$ mmol/l gacha oshganligi kuzatildi (1- jadval).

1- jadval

Sog'in sigirlar organizmidagi keton tanachalar miqdori (n=5)

Keton tanachalari	Davolash kunlari	Birinchi tajriba	Ikkinchi tajriba	Uchinchi nazorat
Qonda (mmol/l)	boshida	$1,523 \pm 0,06$	$1,535 \pm 0,06$	$1,542 \pm 0,04$
	10- kuni	$1,318 \pm 0,05$	$1,258 \pm 0,06$	$1,554 \pm 0,05$
	15- kuni	$1,104 \pm 0,06$	$1,010 \pm 0,05$	$1,608 \pm 0,06$
Siydikda (mmol/l)	boshida	$1,823 \pm 0,06$	$1,822 \pm 0,05$	$1,826 \pm 0,05$
	10- kuni	$1,741 \pm 0,08$	$1,632 \pm 0,06$	$1,832 \pm 0,06$
	15- kuni	$1,531 \pm 0,05$	$1,504 \pm 0,04$	$1,862 \pm 0,05$

